

**TEKNOLOGIYA DARSLARIDA CLIL TEKNOLOGIYALARI VOSITASIDA
O'QUVCHILARNING TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH**

Ibroximov Maqsadjon Axmedovich

Namangan davlat pedagogika instituti, o'qituvchi

E-mail: maqsadjonibroximov@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.19828771>

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada texnologiya darslarida CLIL yondashuvi asosida o'quvchilarning tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari keng tahlil qilinadi. CLIL metodining samaradorligi, uning o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, kommunikativ kompetensiyasi va iqtisodiy tafakkuriga ta'siri yoritiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, integratsiyalashgan ta'lim modeli o'quvchilarning amaliy faoliyatga tayyorligini oshiradi.*

***Kalit so'zlar:** CLIL, texnologiya ta'limi, tadbirkorlik, kompetensiya, innovatsiya, integratsiya.*

***Аннотация:** В данной статье подробно анализируются теоретические и практические аспекты развития предпринимательских навыков учащихся на основе подхода CLIL в технологическом образовании. Освещается эффективность метода CLIL, а также его влияние на развитие самостоятельного мышления, коммуникативной компетенции и экономического мышления учащихся. Результаты исследования показывают, что интегрированная модель обучения повышает готовность учащихся к практической деятельности.*

***Ключевые слова:** CLIL, технологическое образование, предпринимательство, компетенция, инновация, интеграция.*

***Annotation:** This article provides a comprehensive analysis of the theoretical and practical aspects of developing students' entrepreneurial skills based on the CLIL approach in technology education. It highlights the effectiveness of the CLIL method and its impact on students' independent thinking, communicative competence, and economic mindset. The research results show that an integrated learning model enhances students' readiness for practical activities.*

***Keywords:** CLIL, technology education, entrepreneurship, competence, innovation, integration.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar kunidagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni mamlakatimizning keyingi besh yili uchun dasturi amal bo'lib xizmat qilmoqda. Yetti yo'nalishdan iborat taraqqiyot strategiyasining to'rtinchi yo'nalishida aynan ta'lim va ilm fanni rivojlantirishga alohida urg'u berilgan. Unga ko'ra umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish maqsadida bir qator fanlar ular jumlasiga chet tillar, aniq va amaliy fanlar yo'nalishi bo'yicha, tabiiy fanlardan fizika, kimyo, biologiya kabi va boshqa muhim, talab yuqori bo'lgan xorijiy tillar, aniq va tabiiy fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'quvchilarga o'rgatishga alohida to'xtalgan. Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo'lida sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos ravishda davom ettirish Taraqqiyot strategiyasining asosiy ustuvor vazifalari sifatida belgilab olingan. Ushbu yo'nalishning ahamiyatga molik tomoni shundaki, davlatning yoshlarga oid siyosatini takomillashtirishda hamda yoshlar bandligini ta'minlashda, ishga joylashtirish masalalarida umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar maktablari va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb etish nazarda tutilgan.

Hozirgi globallashtirish davrida ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri — raqobatbardosh, mustaqil fikrlovchi va innovatsion g'oyalarni ilgari sura oladigan yoshlarni tarbiyalashdir. Texnologiya fanlari esa bu jarayonda muhim rol o'ynaydi. CLIL yondashuvi ushbu jarayonni yanada samarali tashkil etish imkonini beradi.

CLIL texnologiyasining nazariy asoslari

CLIL (Content and Language Integrated Learning) metodikasi fan va tilni birgalikda o'qitishga asoslanadi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning bilim olish jarayonini faollashtiradi, ularni real hayotiy vaziyatlarda bilimlarni qo'llashga o'rgatadi. CLILning 4C modeli — Content, Communication, Cognition va Culture — ta'lim jarayonining asosini tashkil etadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, yuqorida keltirilgan fikrlar maqolaning muammosini belgilab beradi va o'rganilayotgan muammoning dolzarbligi, uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va Texnologiya darslarida CLIL texnologiyalari vositasida o'quvchilarning tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy mexanizmlari bo'yicha maktab ta'limi tizimida yetarlicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilmaganligiga asos bo'ladi. Dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda CLIL

texnologiyalari vositasida o'quvchilarning tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarni aniqlashtirish, nazariy-amaliy jihatlarini asoslash va ilmiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish, mashg'ulotlarda CLIL texnologiyalari vositasida o'quvchilarning tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish jarayoni, uning mazmuni va pedagogik shart-sharoitlarini mustahkamlash lozim.

CLIL texnologiyasini texnologiya darslarida qo'llash o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini kompleks rivojlantiradi. Ushbu yondashuv ularni kelajak hayotga tayyorlaydi va tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltiradi. CLIL texnologiyasini texnologiya darslarida qo'llash o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini kompleks rivojlantiradi. Ushbu yondashuv ularni kelajak hayotga tayyorlaydi va tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli qarori 08.10.2019.
2. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish. – T.: “Fan va texnologiya”. – 2008.
3. Axmedovich, I. M. (2024). Xorijiy tadqiqotlarda bo‘lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatini ijtimoiy kompetentlik asosida rivojlantirish zaruriyatlari. *Science and innovation*, 3(Special Issue 41), 446-449.
4. Ibroximov, M. A. (2023). Professional ta’lim yo‘nalishi talabalarining ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishda ta’lim va amaliyot integratsiyasi. *Academic research in educational sciences*, 4(TMA Conference), 175-179.
5. Ishmuhamedov R.J., Abduqodirov A., Pardayev A. “Ta’limda innovatsion texnologiyalar”. – T.: 2008. 27-28 b.
6. Davies H.A. review of enterprise and the economy in education. HM Treasure, 2002. URL: www.dfes.gov.uk.